**Abstract:** This article analyzes the role and importance of artificial intelligence technologies in the process of digitalization of the economy. Today, the process of digitalization of the economy is gaining momentum and is becoming one of the important factors in increasing economic growth and efficiency on a global scale. Artificial intelligence technologies play an important role in this process, creating new opportunities for automating production processes, analyzing data, optimizing financial services, and making effective business decisions. The integration of artificial intelligence into the spheres of industry, agriculture, finance and banking, transport, and public administration increases production efficiency and reduces costs. Taking into account the above circumstances, this article analyzes the role of artificial intelligence technologies in the context of digitalization of the economy, its impact on key sectors, and the opportunities and problems arising from the introduction of these technologies.

**Key words:** Digitalization, artificial intelligence, economics, automation, data analytics, Big Data, algorithms, cross-industry integration, innovation, Industry 4.0, neural networks, machine learning, cybersecurity, digital transformation, information technology, investments, fintech, blockchain.

**Аннотация:** В этой статье анализируется роль и значение технологий искусственного интеллекта в процессе цифровизации экономики. Сегодня процесс цифровизации экономики становится все более интенсивным и становится одним из важнейших факторов экономического роста и повышения эффективности в глобальном масштабе. Технологии искусственного интеллекта играют важную роль в этом процессе, предоставляя новые возможности для автоматизации производственных процессов, анализа данных, оптимизации финансовых услуг и эффективного принятия бизнес-решений. Интеграция искусственного интеллекта в промышленность, сельское хозяйство, финансы и банковское дело, транспорт и государственное управление повышает эффективность производства и снижает затраты. Учитывая вышеизложенное, в данной статье анализируется роль технологий искусственного интеллекта в цифровизации экономики, его влияние на ключевые отрасли, а также возможности и проблемы, возникающие в результате внедрения этих технологий.



**Ключевые слова:** Оцифровка, искусственный интеллект, экономика, автоматизация, анализ данных, большие данные, алгоритмы, межсетевая интеграция, инновации, Индустрия 4.0, нейронные сети, машинное обучение, кибербезопасность, цифровая трансформация, информационные технологии, инвестиции, финтех, блокчейн.

## KIRISH

Raqamli texnologiyalar rivojlanishi zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Sun'iy intellekt texnologiyalari esa ushbu jarayonning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunda iqtisodiyotni raqamlashtirish nafaqat ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda, balki biznes jarayonlarini optimallashtirish, davlat boshqaruvi takomillashtirish va yangi innovatsion yo'nalishlarni rivojlantirish imkonini bermoqda. Sun'iy intellekt texnologiyalari iqtisodiy jarayonlarga chuqur integratsiyalashib, biznes va davlat boshqaruvi subyektlari uchun yangi imkoniyatlarni yaratmoqda.

Sun'iy intellektning iqtisodiy jarayonlarga ta'siri kundan-kunga ortib bormoqda. Korxonalar sun'iy intellekt texnologiyalari orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, operatsion xarajatlarni qisqartirish va mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash imkoniga ega bo'lishmoqda. Masalan, elektron tijoratda sun'iy intellekt asosida ishlaydigan tavsiyalar tizimi mijozlarga mos mahsulotlarni taklif qilish orqali savdo hajmini oshirsa, bank-moliya sohasida sun'iy intellekt kreditlar berish jarayonini tezlashtirish, firibgarlik holatlarining oldini olish va moliyaviy risklarni minimallashtirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, sun'iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiy rivojlanish jarayonida yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan muammolar ham mavjud. Birinchidan, ushbu texnologiyalarni joriy etish natijasida ba'zi an'anaviy kasblarning yo'qolishi kuzatilishi mumkin, bu esa mehnat bozorida muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Ikkinchidan, sun'iy intellekt tizimlarining ishonchliligi va kiberxavfsizlik masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ma'lumotlarning himoyalaniishi va sun'iy intellektning noto'g'ri qo'llanilishi iqtisodiy hamda ijtimoiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

O'zbekiston iqtisodiyoti ham raqamlashtirish jarayoniga faol kirib bormoqda. So'nggi yillarda mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, sun'iy intellekt texnologiyalarini sanoat va xizmatlar sohalariga tatbiq etish bo'yicha davlat dasturlari ishlab chiqilmoqda. Biroq, ushbu texnologiyalarni keng joriy etish uchun zarur bo'lgan infratuzilma, mutaxassislar tayyorlash va normativ-huquqiy bazani takomillashtirish kabi muhim masalalar hal etilishi lozim.

## ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda sun'iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiyotga ta'siri bo'yicha jahon miqyosida keng tadqiqotlar olib borilmoqda. Iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalari ishlab chiqarish, moliyaviy tizimlar, davlat boshqaruvi va xizmatlar sohasida samaradorlikni oshirishda muhim rol o'ynamoqda. Iqtisodiyotni raqamlashtirish va raqamlashtirish sharoitida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish masalasi so'nggi yillarda ko'plab tadqiqotchilar, xalqaro tashkilotlar va ekspertlar tomonidan keng o'rganilmoqda. Ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy ishlar texnologiyalar, xususan, biznes jarayonlarini avtomatlashtirish, katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash hamda strategik qarorlar qabul qilish tizimlarini rivojlantirish kabi muhim jihatlarni qamrab oladi.

Iqtisodiyotni raqamlashtirish bevosita raqamli iqtisodiyotning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyot – bu raqamli va elektron texnologiyalarga asoslangan va to'g'ridan-to'g'ri elektron tijorat, bulutli texnologiyalar, raqamli platformalar va tarmoq biznesi orqali amalga oshiriladigan odamlarning iqtisodiy faoliyatini tashkil etish shakli hisoblanadi. Ushbu ta'rif Internetda raqamli kommunikatsiya yoki tarmoq texnologiyalari yordamida amalga oshiriladigan barcha biznes, madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy operatsiyalarni qamrab oladi. Bu atama birinchi marta 1995-yilda kanadalik professor D.Tapskott tomonidan uning "Raqamli iqtisodiyot: tarmoq intellekti davridagi va'da va xavf" nomli kitobida qo'llangan [6]. Shuningdek, amerikalik olim J.Negroponte ham ushbu tushunchaga e'tibor qaratib, axborot va raqamli texnologiyalarning iqtisodiyot hamda jamiyat hayotidagi rolini, shuningdek, ularning kelajakda ortib boruvchi ahamiyatini ta'kidlagan [7].

Skiner K. [8], Shvab K. [9], Markova V. [10] va Ivanov V. [11] kabi rus olimlarining tadqiqotlari zamonaviy adabiyotlarda asosiy e'tibor birinchi navbatda iqtisodiyotni raqamlashtirishning hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari texnik va texnologik masalalariga qaratilgan. Yana bir olim M.L.Kalujskiy raqamli iqtisodiyotni Internet tarmog'ida iqtisodiy faoliyat yuritish uchun kommunikatsion muhit, shuningdek, uning amalga oshirilish shakllari, usullari, vositalari va natijalari sifatida ta'riflaydi [12].

Iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayoni zamonaviy texnologiyalar, xususan, sun'iy intellektning jadal rivojlanishi bilan yanada tezlashmoqda. Sun'iy intellekt texnologiyalari ishlab chiqarish, moliya, savdo, xizmat ko'rsatish



va boshqa ko'plab sohalarda keng qo'llanilmoqda. O'zbekistonda sun'iy intellekt bilan bog'liq masalalar hamda raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish usullari va mexanizmlari ko'plab ilmiy tadqiqotlarda o'rganilgan. Ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy ishlar doirasida turli model va konsepsiyalar ishlab chiqilgan bo'lib, ular texnologik innovatsiyalarni iqtisodiy tizimga samarali integratsiya qilishga qaratilgan.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi S.S.G'ulomov rahbarligidagi tadqiqotlar doirasida raqamli iqtisodiyot sohasida blokcheyn texnologiyalarini joriy etish masalalari chuqur tahlil qilinib, ushbu texnologiyadan foydalanish imkoniyatlari hamda yo'nalishlari ishlab chiqilgan. Bu tadqiqotlar blokcheynning iqtisodiy jarayonlarda qo'llanilishiga, xususan, tranzaksiya xavfsizligini ta'minlash, davlat xizmatlarini avtomatlashtirish va biznes muhitida shaffoflikni oshirish kabi muhim jihatlarga qaratilgan.

S.S.Gulyamov, R.H.Ayupov, O.M.Abdullayev, G.R.Baltabayevlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda sun'iy intellekt sohasidagi ilg'or texnologiyalar hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonini intellektuallashtirishga yo'naltirilgan model va algoritmlar ishlab chiqilgan. Ushbu tadqiqotlarda axborot tizimlarini takomillashtirish va boshqaruv mexanizmlarining samaradorligini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Ular iqtisodiyotning raqamlashtirilish jarayonini quyichaga izohlashgan: "Bilimlarga asoslangan raqamli iqtisodiyotga o'tish konsepsiyasi industrial davrdan axborot-texnologik davrining ishlab chiqarish usuliga o'tish bilan bog'liqdir. Ushbu konsepsiyaning paydo bo'lishiga asosiy sabab industrial iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va jabhalarini qamrab olgan hamda uning miqyosi, dinamikasi va ichki mohiyatini batamom o'zgartirib yuborgan yangi raqamli axborot texnologiyalar paradigmasidir" [13].

Yana bir nechta mahalliy tadqiqotchilarimizdan Abdullayev O., Fattaxov A., Axmedov K. kabi olimlarimizning ta'kidlashicha, "Raqamlashtirish jarayoni mamlakat iqtisodiyotida kuchayib boradi va transmilliy korporatsiyalarning mamlakatning mintaqaviy hamda milliy iqtisodiyotlari faoliyatidagi roli ortib boradi. Iqtisodiyotning raqamli segmenti mamlakat iqtisodiyoti va jamiyatida yuz bergan sifat o'zgarishlari tufayli dolzarb ahamiyat kasb etadi. Yangi texnologiyalar va platformalar jismoniy shaxslar hamda korxonalar boshqaruviga tobora katta ko'lamda o'zaro aloqalarda tranzaksiya xarajatlarini qisqartirish, shuningdek, davlat tuzilmalari va xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan yaqin hamkorlikni amalga oshirish imkoniyatini beradi" [14].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni va ahamiyatini o'rganish maqsadida zamonaviy ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotda ilmiy tahlil, statistik ma'lumotlarni qayta ishlash, taqqoslash va sistemali yondashuv kabi metodologik usullar qo'llanildi.

Birinchidan, mavzuga oid nazariy yondashuv asosida sun'iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiy jarayonlarga integratsiyalashuv darajasi o'rganildi. Jahon miqyosida va O'zbekiston sharoitida sun'iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiy sohalarga ta'siri tahlil qilindi. Ushbu jarayonda ilmiy maqolalar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va davlat dasturlariga asoslangan manbalar o'rganildi.

Ikkinchidan, statistik tahlil usuli yordamida sun'iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiy rivojlanishga ta'siri, ishlab chiqarish samaradorligi va mehnat bozoridagi o'zgarishlar ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Sun'iy intellektidan foydalanish natijasida turli iqtisodiy sektorlarda kuzatilayotgan tendensiyalarni aniqlashga harakat qilindi.

Uchinchidan, taqqoslash va sistemali yondashuv orqali turli mamlakatlarning tajribalari o'rganilib, O'zbekiston sharoitida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning ustunliklari va muammolari baholandi. Bu orqali iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonida eng samarali strategiyalarni belgilash imkoniyati yaratildi.

Tadqiqot natijalari asosida sun'iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiy jarayonlarga ta'sirini baholash va kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlari bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiyotni raqamlashtirish – bu raqamli texnologiyalar, ayniqsa sun'iy intellekt vositalaridan foydalangan holda iqtisodiy jarayonlarni avtomatlashtirish, samaradorligini oshirish va yangi qiymat yaratish tizimini anglatadi. So'nggi yillarda sun'iy intellekt texnologiyalari iqtisodiy sohalarda inqilobiy o'zgarishlarga sabab bo'layotgan asosiy vositaga aylanmoqda. Bunda ishlab chiqarish, bank ishi, sog'liqni saqlash, ta'lim, transport va boshqa ko'plab sohalarda sun'iy intellekt asosidagi algoritmlar keng qo'llanilmoqda. Mazkur texnologiyalar ish faoliyatini optimallashtirish, resurslardan oqilona foydalanish, xarajatlarni kamaytirish va daromadlarni oshirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, katta hajmdagi ma'lumotlarni (Big Data) qayta ishlash, bashoratli tahlillarni amalga oshirish va tezkor qaror qabul qilishda sun'iy intellektning roli beqiyosdir. Raqamlashtirish jarayoni tobora chuqurlashar ekan, sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish, mavjud holatni baholash va istiqbollarni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Quyidagi jadvalda sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanish yo'nalishlari, ularning iqtisodiyotga ta'siri va qo'llanilish sohalari bo'yicha asosiy tendensiyalar yoritilgan (1-jadval):

1-jadval. Jahonda sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanish tendensiyalari, 2020-2025 yillar<sup>1</sup>

| Yil  | Asosiy texnologiyalar                                           | Qo'llanilish sohalari            | Rivojlanish yo'nalishlari                              | Iqtisodiy ta'sir ko'lam                  |
|------|-----------------------------------------------------------------|----------------------------------|--------------------------------------------------------|------------------------------------------|
| 2020 | Mashinali o'qitish, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP)            | Moliya, savdo, xizmat ko'rsatish | Avtomatlashtirilgan xizmatlar, chatbotlar              | Xarajatlar 15% gacha kamaydi             |
| 2021 | Kompyuter ko'rishi, ovoz tanish tizimlari                       | Sog'liqni saqlash, transport     | Diagnostika, yuzni aniqlash, yo'l harakati monitoringi | Ish unumdorligi 20% oshdi                |
| 2022 | Katta ma'lumotlar (big data) va sun'iy intellekt integratsiyasi | Qishloq xo'jaligi, energetika    | IoT + sun'iy intellekt orqali tahliliy boshqaruv       | Resurs tejallishi 25%                    |
| 2023 | O'rganadigan algoritmlar (self-learning AI)                     | Sanoat, ishlab chiqarish         | Avtonom robotlar, aqlli texnologik liniyalar           | Ishlab chiqarish samaradorligi 30% oshdi |
| 2024 | Generativ sun'iy intellekt (Generative AI)                      | Ta'lim, media, ijodiy sohalar    | Kontent yaratish, virtual o'qituvchilar                | 40% vaqt tejash                          |
| 2025 | Sun'iy umumiy intellektga o'tish (AGI jarayonlari)              | Barcha sohalar                   | Ko'p funktsiyali tizimlar, aqlli boshqaruv             | Iqtisodiy o'sishga 5% hissa qo'shmoqda   |

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinadiki, 2020-yildan 2025-yilgacha sun'iy intellekt texnologiyalari bosqichma-bosqich rivojlanib, iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlariga chuqur kirib bormoqda. 2020-yilda mashinali o'qitish va NLP texnologiyalari orqali asosiy e'tibor xizmat ko'rsatishni avtomatlashtirishga qaratilgan bo'lsa, keyingi yillarda texnologik murakkablik va funksional imkoniyatlar keskin oshgan. 2021-yilda kompyuter ko'rishi va ovoz texnologiyalari yordamida sog'liqni saqlash va transport tizimlari soddalashtirildi. 2022-yilga kelib IoT va big data tahlillari orqali an'anaviy sohalarida (energetika, qishloq xo'jaligi) samaradorlik sezilarli darajada oshdi. 2023-yilda o'z-o'zidan o'rganadigan algoritmlarning ishlab chiqarishda qo'llanishi natijasida avtomatlashtirish jarayonlari jadallashdi. 2024-yil generativ sun'iy intellekt yili bo'lib, ijodiy va ta'lim sohalarida inqilobiy o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Nihoyat, 2025-yilda AGI (Sun'iy umumiy intellekt) bosqichiga yaqinlashilgan va bu iqtisodiy o'sishga bevosita ta'sir ko'rsata boshlagan. Bu jarayonlar sun'iy intellekt iqtisodiyot uchun strategik resursga aylanayotganini tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayoni 2010-yillardan boshlab bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda sun'iy intellekt texnologiyalari ham asta-sekinlik bilan davlat boshqaruvi, moliya, transport, sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqa tarmoqlarga joriy etilmoqda. Sun'iy intellekt texnologiyalari – bu kompyuter tizimlariga insondek fikrlash, qaror qabul qilish va o'rganish imkonini beruvchi algoritmlar va tizimlardir. O'zbekistonda sun'iy intellekt rivoji bir necha bosqichlarga bo'linadi: dastlabki bosqichda asosan avtomatlashtirishga e'tibor qaratilgan bo'lsa, hozirda prognozlash, tahlil qilish, foydalanuvchi bilan o'zaro muloqot qilish, xavfsizlikni ta'minlash kabi ilg'or funktsiyalar keng qo'llanilmoqda.

Mamlakatimizda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi qabul qilinib, u orqali sun'iy intellekt texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish bo'yicha tizimli ishlar yo'lga qo'yildi. Raqamli texnologiyalarning iqtisodiy jarayonlarga integratsiyalashuvi natijasida davlat boshqaruvi, moliya, soliq, ta'lim, sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi va sanoat sohalarida sun'iy intellektidan foydalanish holatlari shakllana boshladi. Shu jarayonda ilmiy-tadqiqot institutlari, IT-parklar va startap loyihalar muhim rol o'ynayapti. Ayniqsa, avtomatlashtirilgan tahlil tizimlari, chatbotlar, aqlli monitoring platformalari va prediktiv modellarni joriy etish bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Quyidagi jadvalda O'zbekistonda sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanish bosqichlari, har bir bosqichdagi yutuqlar va yo'nalishlari aks ettirilgan (2-jadval):

2-jadval. O'zbekistonda sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanish bosqichlari<sup>2</sup>

| № | Bosqich nomi                | Davr             | Asosiy xususiyatlari                                         | Amaldagi misollar / tashabbuslar                       |
|---|-----------------------------|------------------|--------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------|
| 1 | Dastlabki avtomatlashtirish | 2010-2015 yillar | Dasturiy tizimlar va elektron hujjat aylanishi joriy etildi  | Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov)   |
| 2 | Raqamlashtirishni boshlash  | 2016-2019 yillar | Elektron to'lovlar, E-gov, elektron bank xizmatlari kengaydi | Humo va UzCard tizimlari, "E-IJRO AUKSION" platformasi |

1 <https://www.oecd.org> saytidagi ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi

2 Muallif tomonidan tayyorlangan



|   |                                                |                     |                                                                                     |                                                      |
|---|------------------------------------------------|---------------------|-------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------|
| 3 | Sun'iy intellektga tayyorgarlik                | 2020-2021 yillar    | Sun'iy intellekt bo'yicha qonunchilik asoslari, kadrlar tayyorlash boshlanishi      | "AI-Lab" markazi, IT Parkning kengayishi             |
| 4 | Sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish | 2022-2024 yillar    | Sun'iy intellekt asosidagi xizmatlar joriy etila boshlandi                          | Chatbotlar, yuzni tanish tizimlari (ID-karta tizimi) |
| 5 | Integratsiyalashgan sun'iy intellekt tizimlari | 2025-2030 (prognoz) | Sun'iy intellekt barcha sohalarga chuqur integratsiyalashadi, prognozlash kuchayadi | Aqlli shaharlar, aqlli transport, prognoz tizimlari  |

Ushbu jadvalda keltirilganidek, O'zbekistonda sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Dastlabki yillarda raqamlashtirish faqat hujjatlar aylanishi va elektron xizmatlar bilan cheklangan bo'lsa, keyinchalik to'lov tizimlari va davlat boshqaruvining raqamli modellari o'tdi. 2020-yillardan boshlab sun'iy intellektga tayyorgarlik ko'rib, ilmiy markazlar tashkil etildi, qonunchilik bazasi shakllana boshladi. 2022-2024 yillarda esa sun'iy intellekt texnologiyalari amaliyotga keng tatbiq qilina boshladi. Hozirda yuzni tanish, chatbotlar, avtomatlashtirilgan xizmatlar joriy etilgan. 2025-2030-yillarda esa prognozlarga ko'ra, sun'iy intellekt texnologiyalari chuqur integratsiyalashadi: aqlli infratuzilmalar, transport tizimlari, sog'liqni saqlash va ta'limda ilg'or texnologiyalar asosida ishlaydigan tizimlar yaratiladi. Bu esa O'zbekiston iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasini tezlashtiradi, samaradorlikni oshiradi va inson resurslarini yuqori qo'shilgan qiymatli faoliyatga yo'naltiradi. Davlat siyosatining sun'iy intellekt rivojiga yo'naltirilganligi bu sohaning istiqbolli ekanligini ko'rsatmoqda.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining O'zbekistonda jadal rivojlanishi iqtisodiyotni modernizatsiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Bu texnologiyalar ishlab chiqarish, moliya, logistika, ta'lim va xizmat ko'rsatish sohaslarida unumdorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va xizmatlar sifatini yaxshilash imkonini bermokda. Biroq, bu jarayon bilan birga bir qator ijtimoiy-iqtisodiy muammolar ham yuzaga kelmoqda. Xususan, mehnat bozori transformatsiyasi natijasida an'anaviy ish o'rinlarining qisqarishi, kadrlar malakasi va texnik tayyorgarligi yetarli darajada bo'lmasligi, axborot xavfsizligi tahdidlari va tartibga solishdagi huquqiy bo'shliqlar kabi masalalar sun'iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiyotga joriy etilishi bilan birgalikda vujudga chiqmoqda. Bu muammolarni erta aniqlash va samarali yechimlar ishlab chiqish mamlakat raqamli transformatsiyasining barqaror va inklyuziv bo'lishida muhim omil hisoblanadi. Quyidagi jadvalda O'zbekiston iqtisodiyotida sun'iy intellekt sababli yuzaga kelayotgan asosiy muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha taklif etilayotgan yechimlar yoritilgan (3-jadval):

3-jadval. Sun'iy intellekt sababli yuzaga kelayotgan muammolar va ularning yechimlari

| № | Muammo                                    | Tavsifi                                                                             | Yechimlari                                                                                            |
|---|-------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1 | Ish o'rinlarining qisqarishi              | Avtomatlashtirish natijasida an'anaviy kasblar yo'qolmoqda                          | Kasb-hunar o'qituvini kuchaytirish, yangi IT kasblarini o'rgatish                                     |
| 2 | Kadrlar malakasining yetishmasligi        | Sun'iy intellekt bo'yicha yetarli mutaxassislar soni kam                            | Raqamli savodxonlik dasturlari, sun'iy intellekt bo'yicha universitetlarda maxsus yo'nalishlar ochish |
| 3 | Ma'lumotlar xavfsizligi                   | Sun'iy intellekt tizimlarida ishlatiladigan katta ma'lumotlar maxfiylikni yo'qotadi | Kiberxavfsizlik tizimlarini joriy qilish, qonunchilik asoslarini mustahkamlash                        |
| 4 | Huquqiy tartibga solishdagi bo'shliqlar   | Adolatli tartibga solish tamoyillari yo'lga qo'yilmoqda                             | Sun'iy intellektga oid qonunchilik bazasini ishlab chiqish va yangilash                               |
| 5 | Ijtimoiy tengsizlik kuchayishi            | Texnologik yutuqlar hamma qatlam uchun teng mavjud emas                             | Raqamli infratuzilmani kengaytirish, qishloq hududlarida internet qamrovini oshirish                  |
| 6 | Sun'iy intellektga nisbatan ishonchsizlik | Insonlar sun'iy intellekt qarorlariga nisbatan ishonchsiz munosabatda               | Tushuntirish ishlari olib borish, ochiq va shaffof algoritmlarni ishlab chiqish                       |

Ushbu jadvalda ko'rsatilganidek, sun'iy intellektning iqtisodiyotga kirib kelishi bir qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Avvalo, ish o'rinlarining qisqarishi va kadrlar malakasining yetishmasligi – eng dolzarb muammolardan biridir. Bunga sabab – mavjud ishchilarning yangi texnologiyalarga moslashish qobiliyatining pastligi va yetarlicha tayyorgarlik ko'rmasligidir. Shu bilan birga, ma'lumotlar xavfsizligi va axborot maxfiyligi sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda eng muhim masalaga aylangan. O'zbekiston bu borada kiberxavfsizlik infratuzilmasini mustahkamlashga harakat qilmoqda. Boshqa tomondan, qonunchilikda mavjud bo'shliqlar, sun'iy intellekt xatolari, firibgarlik holatlarining ko'payishi kabi tahdidlar ham o'z vaqtida tartibga



olinmasa, bu iqtisodiy tizim barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bularning barchasi ijtimoiy tengsizlik va texnologik tafovutni yanada chuqurlashtirishi mumkin. Shuning uchun, davlat siyosati doirasida maxsus qonunlar, ta'lim strategiyalari va texnologik imkoniyatlarni teng taqsimlashga qaratilgan chora-tadbirlar zarurdir. Sun'iy intellekt rivojlanishini barqarorlashtirish uchun ijtimoiy va iqtisodiy muvozanatni saqlab qolish muhimdir.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayoni sun'iy intellekt texnologiyalarining keng joriy etilishi bilan tobora jadallashib bormoqda. Bugungi kunda sun'iy intellekt ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, moliya, transport, qishloq xo'jaligi, ta'lim va sog'liqni saqlash kabi ko'plab sohalarda samaradorlikni oshirish va resurslardan oqilona foydalanish imkonini bermoqda. Sun'iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiyotga ta'siri juda keng bo'lib, u nafaqat ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, balki biznes qarorlarini optimallashtirish va davlat boshqaruvi tizimlarini samarali tashkil etishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Sun'iy intellektidan foydalanish natijasida iqtisodiyotda ishlab chiqarish tannarxi pasayishi, mahsulot va xizmatlar sifatining oshishi, bozor talablariga mos moslashuvchanlikning ortishi va inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklarning kamayishi kuzatilmoqda. Shu bilan birga, sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi ba'zi yangi muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Xususan, sun'iy intellekt avtomatlashtirish natijasida mehnat bozoriga salbiy ta'sir ko'rsatishi, ya'ni an'anaviy kasblarning qisqarishi kuzatilmoqda. Bundan tashqari, sun'iy intellekt tizimlarining noto'g'ri ishlashi yoki ma'lumotlarning kiberxavfsizlik bilan bog'liq muammolar ham e'tiborga olinishi lozim.

O'zbekiston iqtisodiyotida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish istiqbollari katta bo'lib, raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun sun'iy intellekt texnologiyalarini keng joriy etish muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayonda yurtimizda sun'iy intellektni rivojlantirish uchun bir qancha muhim yo'nalishlarga e'tibor qaratish lozim.

Birinchidan, sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish uchun zamonaviy infratuzilmani rivojlantirish zarur. Sun'iy intellekt algoritmlari samarali ishlashi uchun yuqori sifatli ma'lumotlar bazasi, kuchli hisoblash resurslari va tezkor internet tarmoqlari talab etiladi. Shu sababli, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, IT infratuzilmasini takomillashtirish hamda axborot texnologiyalari sohasiga sarmoyalarni jalb qilish muhimdir.

Ikkinchidan, sun'iy intellekt texnologiyalarini iqtisodiyotga keng joriy etish uchun malakali kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish lozim. Sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar sohasida mutaxassislar yetishmovchiligi iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishiga to'siq bo'lishi mumkin. Shu bois, universitet va ilmiy markazlarda sun'iy intellekt bo'yicha maxsus dasturlarni ishlab chiqish, xorijiy tajribani o'rganish va yosh mutaxassislarni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish zarur.

Uchinchidan, sun'iy intellekt texnologiyalarining huquqiy va tartibga soluvchi bazasini mustahkamlash lozim. sun'iy intellekt asosida ishlaydigan tizimlar bilan bog'liq muammolarni hal qilish, shaffoflikni ta'minlash va kiberxavfsizlikni oshirish uchun davlat tomonidan aniq qonuniy me'yorlar ishlab chiqilishi lozim. Bu esa sun'iy intellektidan foydalanish bilan bog'liq xavflarni minimallashtirishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, sun'iy intellekt texnologiyalarini tadbirkorlik va davlat boshqaruvi sohasiga joriy etishni jadallashtirish lozim. Bu jarayonda davlat idoralari va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, startaplarni qo'llab-quvvatlash hamda biznes subyektlari uchun sun'iy intellekt asosidagi innovatsion yechimlarni taklif etish muhimdir.

Umumiy qilib aytganda, sun'iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonidagi o'rni beqiyos bo'lib, u iqtisodiy rivojlanishning yangi bosqichiga o'tish imkonini beradi. sun'iy intellekt texnologiyalarining samarali joriy etilishi iqtisodiy o'sish, raqobatbardoshlikni oshirish va jamiyat farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bois, mamlakatimizda sun'iy intellekt sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, investitsiyalarni jalb qilish va kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish eng muhim yo'nalishlardan biri bo'lishi lozim.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4996-sonli qarori
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-dekabrda "Iqtisodiyot tarmoqlari uchun muhandis kadrlarni tayyorlash tizimini innovatsiya va raqamlashtirish asosida tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori PQ-42-sonli qarori
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-358-sonli qarori
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-fevraldagi "Mamlakatimizda raqamlashtirish sohasidagi xizmatlar eksportini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-87-sonli qarori



6. Tapscott D. The Digital Economy: Promise and Peril In Qe Age of Networked Intelligence. McGrawHill. 1995. 368 p.
7. Negroponte N. Being Digital. New York, New York Vintage Books. 1995. 255 p.
8. Скиннер К. Цифровой человек. Четвертая революция в истории человечества, которая затронет каждого. Москва, Издательство Манна, Иванова и Фарбера. 2019. 304 с.
9. Шваб К. Четвертая промышленная революция. Москва, Изд-во "Эксмо", 2018. 288 с.
10. Маркова В. Цифровая экономика. Москва, Изд-во "Инфра-М", 2018. 186 с.
11. Иванов В., Малинецкий Г. Цифровая экономика: мифы, реальность, перспективы. Москва, Изд-во РАН, 2017. 63 с.
12. Калужский М.Л. Маркетинговые сети в электронной коммерции: институциональный подход. – М.; Берлин: Директ-Медиа, 2014. – С.402.
13. S.S.Gulyamov, R.H.Ayupov, O.M.Abdullayev, G.R.Baltabayeva. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar: O'quv qo'llanma; — T.: "Iqtisod-Moliya", 2019, - 380 b.
14. Abdullayev O., Fattaxov A., Axmedov K. Raqamli iqtisodiyot. O'quv qo'llanma. T: "LESSON PRESS", nashriyoti, 2020 yil - 686 bet.
15. <https://www.tadviser.ru> Rossiya internet-portali va tahliliy agentligi sayti
16. <http://www.lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti
17. <https://www.imv.uz> – Iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti
18. <http://www.stat.uz> – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti
19. <https://innovation.gov.uz> – Innovatsion rivojlanish agentligi sayti
20. <https://digital.uz> – O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi sayti
21. <https://www.oecd.org> – Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti sayti



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>